

Date: 29th May-2026

**DIALEKTAL HODISALARNING ADABIY TILGA KIRIB KELISH VA CHIQIB
KETISH MEKANIZMLARI**

Meliqulova Shirin O'tkir qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti o'zbek tili va adabiyoti
1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada dialektal hodisalarning adabiy til tizimidagi o'rni va ularning til taraqqiyotiga ta'siri ilmiy jihatdan yoritiladi. Dialekt unsurlarining adabiy tilga kirib kelishi xalq nutqining boyishi, yangi tushunchalarning ifodalanishi hamda kommunikativ ehtiyojlarning ortishi bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Maqolada ijtimoiy-madaniy muhit, badiiy adabiyot, ommaviy axborot vositalari va til siyosatining dialektal hodisalarga ta'siri alohida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida dialekt va adabiy til o'rtasidagi uzviy aloqa tilning rivojlanishida muhim omil ekanligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: dialekt, sheva, adabiy til, dialektizm, til me'yorlari, arxaizm, leksik qatlam, fonetik hodisa, grammatik xususiyat, til siyosati, madaniy muhit, kommunikativ ehtiyoj, til taraqqiyoti, uslubiy qatlam, xalq nutqi.

Annotation: This article scientifically examines the role of dialectal phenomena in the system of the literary language and their influence on language development. The process of dialectal elements entering the literary language is analyzed in connection with the enrichment of popular speech, the expression of new concepts, and the growth of communicative needs. The article also separately considers the influence of the socio-cultural environment, fiction literature, mass media, and language policy on dialectal phenomena. As a result of the research, it is substantiated that the close relationship between dialects and the literary language is an important factor in language development.

Keywords: dialect, vernacular, literary language, dialectism, language norms, archaism, lexical layer, phonetic phenomenon, grammatical feature, language policy, cultural environment, communicative need, language development, stylistic layer, folk speech.

Аннотация: В данной статье с научной точки зрения рассматривается роль диалектных явлений в системе литературного языка и их влияние на развитие языка. Анализируется процесс проникновения диалектных элементов в литературный язык, связанный с обогащением народной речи, выражением новых понятий и ростом коммуникативных потребностей. В статье также отдельно рассматривается влияние социокультурной среды, художественной литературы, средств массовой информации и языковой политики на диалектные явления. В результате исследования обосновывается, что тесная взаимосвязь между диалектами и литературным языком является важным фактором развития языка.

Ключевые слова: диалект, говор, литературный язык, диалектизм, языковые нормы, архаизм, лексический слой, фонетическое явление, грамматическая особенность, языковая политика, культурная среда, коммуникативная потребность, развитие языка, стилистический слой, народная речь.



Date: 29th May-2026



Kirish. Til jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab ijtimoiy hodisadir. U insonlar o‘rtasidagi aloqa vositasi bo‘lish bilan birga, xalqning tarixi, madaniyati, urf-odatlar va milliy tafakkurini ham o‘zida aks ettiradi. Har bir milliy til tarkibida adabiy til bilan bir qatorda turli hududiy shevalar va dialektlar mavjud bo‘lib, ular tilning tabiiy rivojlanish manbalaridan biri hisoblanadi. Dialektlar uzoq tarixiy jarayon davomida shakllanib, xalqning yashash muhiti, turmush tarzi va madaniy xususiyatlarini o‘zida saqlab qoladi.

Adabiy til esa umumxalq uchun tushunarli, me‘yorlashgan va rasmiy aloqa vositasi sifatida xizmat qiluvchi til shaklidir.² U davlat boshqaruvi, ta‘lim, ilm-fan, ommaviy axborot vositalari hamda badiiy adabiyotda keng qo‘llanadi. Adabiy tilning boyishi va takomillashuvida dialektlarning hissasi katta bo‘lib, ko‘plab yangi so‘z va iboralar dastlab shevalarda paydo bo‘ladi hamda keyinchalik umumxalq iste‘moliga kirib boradi. Shu sababli dialektlar tilning leksik boyligini oshiruvchi muhim manba sifatida qaraladi. Shu bilan birga, til taraqqiyoti davomida ayrim dialektal birliklar adabiy til tarkibidan chiqib ketishi yoki faqat mahalliy nutq doirasida saqlanib qolishi mumkin. Bunga til me‘yorlarining shakllanishi, ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar, kommunikativ ehtiyojlarning yangilanishi hamda rasmiy uslub talablarining kuchayishi sabab bo‘ladi.³ Natijada ayrim sheva unsurlari arxaiklashadi yoki iste‘mol doirasi torayadi. Dialekt va adabiy til o‘rtasidagi o‘zaro munosabat tilshunoslikning muhim va dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Chunki dialektal hodisalarning adabiy tilga kirib kelishi hamda undan chiqib ketish jarayonlari tilning ichki taraqqiyot qonuniyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Mazkur mavzuni o‘rganish adabiy tilning boyish manbalarini aniqlash, til taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini tushunish hamda milliy tilning tarixiy rivojlanishini tadqiq etishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dialektal hodisalarning adabiy tilga kirib kelishi va undan chiqib ketish masalasi o‘zbek tilshunosligida muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu mavzu yuzasidan ko‘plab olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan bo‘lib, ularning ishlarida dialekt va adabiy til o‘rtasidagi munosabat turli jihatdan yoritilgan. Sh. Shoabdurahmonov o‘z tadqiqotlarida o‘zbek shevalarining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini tahlil qilib, dialektlarning adabiy til rivojida o‘rnini ko‘rsatib bergan.⁴ V.V. Reshetov va Sh. Shoabdurahmonov hammuallifligidagi “O‘zbek dialektologiyasi” asarida esa o‘zbek shevalarining tasnifi, ularning lingvistik xususiyatlari hamda adabiy til bilan aloqasi keng yoritilgan.⁵ A. G‘ulomovning ilmiy ishlarida adabiy tilning shakllanishi va me‘yorlashuvi masalalari tahlil qilingan.⁶ G‘. Abdurahmonovning tadqiqotlarida esa

²G‘ulomov A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2008.

³ Abdurahmonov G‘. Adabiy til me‘yorlari va nutq madaniyati. – Toshkent, 2010.

⁴ Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2013.

⁵ Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.

⁶ G‘ulomov A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2008.

Date: 29th May-2026

nutq madaniyati hamda adabiy til me'yorlarining dialektal birliklarga ta'siri yoritilgan. Olimlarning qarashlari dialektal hodisalarning til taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatadi..

Tadqiqot metodologiyasi. Dialektal hodisalarning adabiy tilga kirib kelishi va undan chiqib ketishi murakkab hamda tabiiy jarayon bo'lib, u tilning ichki qonuniyatlari, xalqning nutqiy ehtiyojlari va jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy o'zgarishlari bilan chambarchas bog'liqdir. Til doimo harakatda bo'lgani sababli unda yangi unsurlar paydo bo'ladi, ayrimlari esa iste'moldan chiqib ketadi. Quyida ushbu mexanizmlarning asosiy bosqichlari va sabablari yoritiladi: Adabiy tilda muayyan narsa, tushuncha yoki harakatni ifodalovchi so'z yetishmaganda, shevalardagi eng aniq, qulay va ixcham birliklar adabiy tilga qabul qilinadi. Bunday jarayon tilning lug'at boyligini kengaytiradi va nutqni yanada ta'sirchan qiladi. Muayyan davrda qaysi hudud siyosiy, iqtisodiy yoki madaniy markaz sifatida rivojlansa, o'sha hudud shevasining ayrim xususiyatlari adabiy til me'yoriga yaqinlashib boradi. Chunki markaziy hudud aholisi nutqi kengroq tarqaladi va ko'proq nufuzga ega bo'ladi. Masalan, o'zbek adabiy tilining shakllanishida Toshkent hamda Farg'ona vodiysi shevalarining ta'siri katta bo'lgan. Yozuvchilar, shoirlar va jurnalistlar asarlarida qahramonlarning nutqini tabiiy va jonli ko'rsatish maqsadida dialektizmlardan foydalanadi. Bu esa kitobxonlarda ushbu so'zlarga nisbatan qiziqish uyg'otadi va vaqt o'tishi bilan ayrim sheva birliklari adabiy til me'yoriga aylanishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, mashhur asarlar orqali kirib kelgan so'zlar xalq orasida tez ommalashadi.

Dialektal hodisalarning adabiy tildan chiqib ketish, ya'ni arxaiklashish mexanizmlari. Adabiy til lug'atlar, grammatik qoida va yozma manbalar orqali tartibga solinadi. Kodifikatsiya jarayonida me'yorga mos kelmaydigan yoki tor hududda qo'llanadigan sheva unsurlari asta-sekin adabiy til iste'molidan siqib chiqariladi. Bu esa adabiy tilning yagona va barqaror shaklda rivojlanishiga xizmat qiladi. Agar sheva elementi adabiy til qoidalariga to'liq moslasha olmasa, u uzoq vaqt yashab qolmaydi. Adabiy til talaffuz va grammatik me'yorlarni talab qilgani sababli ayrim variantlar iste'moldan chiqadi. Shevalarda ko'proq qadimgi turmush tarziga, qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikka oid so'zlar uchraydi. Jamiyat taraqqiy etib, eski kasb-hunarlar hamda urf-odatlar yo'qolib borishi bilan ularga tegishli dialektal birliklar ham asta-sekin iste'moldan chiqadi. Shu tariqa ayrim so'zlar tarixiy yoki arxaik qatlamga aylanadi. Jamiyatda shevalarga ba'zan "mahalliy" yoki "oddiy nutq" unsuri sifatida qaraladi. Shu sababli rasmiy, ilmiy va ishbilarmonlik uslubida sheva so'zlari kam qo'llanadi. Ular asosan kundalik nutqda yoki badiiy asarlarda mahalliy kolorit yaratish uchun ishlatiladi. Bu holat ham ayrim dialektal birliklarning adabiy tildan cheklanib qolishiga olib keladi.

Tadqiqot jarayonida dialekt va adabiy til o'rtasidagi munosabatlarni lingvistik, ijtimoiy hamda tarixiy jihatdan tahlil qilish asosiy metodologik yo'nalish sifatida belgilandi. Avvalo, tadqiqotning nazariy asosini o'zbek tilshunosligiga oid ilmiy adabiyotlar tashkil etdi. Jumladan, Sh. Shoabdurahmonov, V.V. Reshetov, A. G'ulomov hamda G'. Abdurahmonovning dialektologiya va adabiy til me'yorlariga bag'ishlangan



Date: 29th May-2026



ishlari tahlil qilindi.⁷ Ushbu manbalarda o'zbek shevalarining lingvistik xususiyatlari, ularning adabiy til bilan aloqasi va me'yorlashuv jarayonlari ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot davomida tavsifiy metoddan foydalanilib, dialektal birliklarning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari izohlandi. Bu metod orqali sheva unsurlarining adabiy til tarkibiga kirish sabablari hamda ularning iste'moldan chiqib ketish omillari tahlil qilindi. Ayniqsa, ayrim dialektizmlarning umumxalq tiliga singib borishi yoki uslubiy jihatdan cheklanishi misollar asosida ko'rsatib berildi. Shuningdek, qiyosiy-tahliliy metod yordamida dialektal va adabiy til birliklari o'zaro solishtirildi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy yondashuv ham qo'llanilib, ayrim dialektal unsurlarning tarixiy taraqqiyot davomida qanday o'zgarishga uchragani ko'rib chiqildi. Tadqiqotning yana bir muhim jihati sifatida sotsiolingvistik yondashuvdan foydalanildi. Chunki dialektal hodisalarning adabiy tilga kirib kelishi yoki undan chiqib ketishi jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar, migratsiya, ommaviy axborot vositalari va kommunikativ ehtiyojlar bilan chambarchas bog'liqdir.⁸ Shu sababli til hodisalari faqat lingvistik emas, balki ijtimoiy omillar asosida ham baholandi. **Tahlil va natijalar.** Tadqiqot davomida dialektal hodisalarning adabiy tilga kirib kelishi va undan chiqib ketishi til taraqqiyotining tabiiy jarayoni ekanligi aniqlandi. Shevalar adabiy tilning boyishida muhim manba bo'lib xizmat qilishi hamda ayrim dialektal birliklarning vaqt o'tishi bilan umumxalq iste'moliga kirib borishi kuzatildi. Ayniqsa, yangi tushuncha va holatlarni ifodalash ehtiyoji sheva unsurlarining ommalashishiga sabab bo'ladi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, migratsiya, urbanizatsiya, ommaviy axborot vositalari va internet kommunikatsiyasi ayrim sheva elementlarining keng tarqalishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada ayrim dialektal birliklar kundalik nutqda faol qo'llanila boshlagan. Shu bilan birga, barcha dialektal unsurlar ham adabiy til tarkibida saqlanib qolmaydi. Adabiy tilning fonetik va grammatik me'yorlariga mos kelmaydigan ayrim birliklarning qo'llanish doirasi torayib, asta-sekin iste'moldan chiqib ketadi. Eski turmush tarzi va qadimgi kasb-hunarlar bilan bog'liq ayrim so'zlarning arxaiklashuvi ham kuzatildi. Badiiy adabiyotlarda dialektal hodisalar qahramon nutqini tabiiy ko'rsatish va milliy muhitni tasvirlashda muhim uslubiy vosita sifatida xizmat qilishi aniqlandi. Umuman olganda, olib borilgan tahlillar dialekt va adabiy tilning o'zaro bog'liq tizim ekanligini hamda ularning til rivojlanishida muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot davomida dialektal hodisalarning adabiy tilga kirib kelishi va undan chiqib ketishi til taraqqiyotining tabiiy jarayoni ekanligi aniqlandi. Shevalar adabiy tilning boyishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi hamda ayrim dialektal birliklar kommunikativ ehtiyoj va ijtimoiy omillar ta'sirida umumxalq iste'moliga kirib boradi. Shu bilan birga, adabiy til me'yorlarining shakllanishi natijasida ayrim sheva unsurlarining qo'llanish doirasi torayadi yoki ular iste'moldan chiqib ketadi. Ayniqsa, fonetik va grammatik jihatdan adabiy til talablariga mos kelmaydigan birliklar asta-sekin arxaiklashadi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, dialekt va adabiy til bir-biri bilan uzviy bog'liq

⁷ Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 1978.

⁸ Abdurahmonov G'. Adabiy til me'yorlari va nutq madaniyati. – Toshkent, 2010.

Date: 29th May-2026

tizim hisoblanadi. Dialektlar tilning leksik boyligini oshirsa, adabiy til esa til birliklarini tartibga solib, yagona me'yorni shakllantiradi. Shu sababli dialektal hodisalarning o'rganilishi til taraqqiyotini chuqur anglashda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Tadqiqot jarayonida quyidagi takliflar ilgari surildi:

- O'zbek shevalarida uchraydigan dialektal birliklarni yig'ish va ularni ilmiy jihatdan o'rganish bo'yicha tadqiqotlarni yanada kengaytirish;
- Dialektal so'z va iboralarni saqlab qolish maqsadida elektron lug'atlar hamda maxsus ma'lumotlar bazalarini yaratish;
- Oliy ta'lim muassasalarida dialektologiya fanini zamonaviy metodlar asosida o'qitish va amaliy misollardan keng foydalanish;
- Badiiy adabiyot va ommaviy axborot vositalarida sheva elementlaridan maqsadli hamda me'yoriy foydalanishga e'tibor qaratish;
- Dialektal hodisalarning yoshlar nutqi va internet tilidagi qo'llanishini o'rganishga bag'ishlangan yangi ilmiy izlanishlarni olib borish;
- Til me'yorlarini saqlagan holda, xalq nutqida faol qo'llanayotgan ayrim dialektal birliklarning adabiy tilni boyitishdagi imkoniyatlarini hisobga olish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov G'. Adabiy til me'yorlari va nutq madaniyati. – Toshkent: Fan, 2010.
2. Ahmedov A. O'zbek shevalari leksikasi. – Toshkent: Universitet, 2005.
3. G'ulomov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2008.
4. Hojiyev A. O'zbek tili terminologiyasi va uslubiyati. – Toshkent: O'qituvchi, 2007.
5. Jo'rayev M. O'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti. – Toshkent: Fan, 2012.
6. Mirzayev T. O'zbek xalq shevalari. – Toshkent: Fan, 1971.
7. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
8. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2013.
9. Tursunov U. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.

